

## TARIX DARSLARIDA «FIKRLAR ZANJIRI» METODIDAN FOYDALANISH

*A.S.Seyfullaev - Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix darslarida o‘quvchilarda tarixiy tafakkurini rivojlantirish va namoyon etishida fikrlar zanjiri metodi samarali metod ekanligi ta’kidlangan.*

*Kalit so‘zlar: Imitatsiya, metod, tarix darsi, fikrlar zanjiri, tarixiy tafakkur, mustaqil fikr.*

Metod yunoncha "metodos" - so‘zidan olinib bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nolarini bildiradi. Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuliga aytiladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida juda ko‘p metodlar qo‘llanilib kelinmoqda. Natijada o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlashida faollik, erkinlik, ijodiy yondashish, tashabbuskorlik, tahlillash va h.k.lar kabi sifatlarni anglamoqda.

So‘ngi paytlarda ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlarga tarix darslarida voqelikni imitatsiyalash orqali olib borish yaxshi samara beryapti. Imitatsiya deganimiz bu - (lot. imitatio – taqlid) – biror narsaga taqlid qilish, o‘xshatma degan ma’noni bildiradi. Shuningdek o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ham hissasi katta bo‘lmoqda. Mana shunday texnologiyalardan biri - “fikrlar zanjiri” metodi. Ushbu metod - o‘quvchilarda tarixiy tafakkurning namoyon bo‘lishida ko‘rsata olishida alohida ahamiyat kasb etadi. Unda o‘quvchilar muayyan tarixiy davr, shaxslar, ro‘y bergan voqealar haqida o‘zlarining mustaqil qarashlari, tahliliy yondashuvlarini bayon qiladilar.

**Fikrlar zanjiri metodi** - bu muammoni bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda hal qilish usuli bo‘lib, unda har bir fikr oldingisiga tayangan holda rivojlanadi. Bu metod ta’lim jarayonida, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda keng qo‘llanadi.

Metodni foydalanishni 6-sinf “Qadimgi dunyo tarixi” darsligidagi “**Yunon-fors urushlari. Makedoniyaning Yunonistonni bosib olishi**” mavzusida ko‘rib chiqamiz. Bu jarayonda mavzu tanlab olinadi va ishtirokchilar navbat bilan mavzu bo‘yicha berilgan savolga o‘z fikrlarini bildiradi.

**Birinchi bosqich: Muammoli savol.**

Nima sababdan forslar Yunonistonga yurish qildi va ular orasida qanday janglar bo‘ldi?

**Ikkinchi bosqich: “Fikrlar zanjiri”ni boshlash.**

O‘qituvchi *birinchi fikrni beradi*: **Mill. avv. V asr boshlarida** Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Fors shohi Doro I dastlab Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlarini bosib olib, Yunonistonga yurish qiladi.

*Keyin o‘quvchi davom ettiradi*: **Birinchi jang** mil. avv. 490-yili Marafon jangi **bo‘lib o‘tadi**.

*Navbatdagi fikr*: **Mil. avv. 480-yilda Fermopil jangi bo‘ladi**.

*Keyingi fikr*: Mil. avv. 480-yilda Salamin jangi **bo‘lib o‘tdi**.

*Navbatdagi fikr*: **Mil. avv. 479-yilda forslarning Afinaga hujumi**.

*Beshinchi fikr*: Mil. avv. 449-yilda **sulh tuziladi**.

*Oltinchi fikr*: **Makedoniya podshosi Filipp II Yunonistonni bosib olishni ko‘zlaydi**.

*Yettinchi fikr*: **Makedonlar harbiy urushda falangaga ega edi**.

*Keyingi fikr*: **Mil. avv. 338-yilda yunonlar va makedonlarning urushi**.

**Shu tarzda quyidagi masalalar zanjir asosida yoritiladi:**

- **Mil. avv. V asrda Yunon-fors urushi.**
- **Marafon jangida yunon qo‘shinlari g‘alaba qozonadi. Marafon yugirishining tarixi ham mana shu g‘alabadan kelib chiqqan.**
- **Fermopil jangiga** Doro I ning o‘g‘li Kserks boshchilik qiladi. Yunonlar qo‘shiniga esa Sparta podshosi **Leonid** boshchilik qiladi. Ular Fermopil darasini matonat bilan himoya qildi va barchalari qahramonlarcha halok bo‘ldi. Ushbu voqea “**Uch yuz spartalik jasorati**” nomi bilan tarixda qolgan.
- **Yunonlar va forslar o‘rtasidagi hal qiluvchi dengiz jangi tor Salamin bo‘g‘ozida bo‘lib o‘tdi. Yunon shahar-davlatlarining birlashgan floti forslarning harbiy flotidan kuchli bo‘lgan, bu jangda ham forslar yengilgan. Natijada Kserks flot qoldiqlari bilan butunlay Yunonistonni tark etgan.**
- **Plateya shahri yaqinida fors qo‘shinlari yunonlar tomonidan tor-mor etiladi.**
- **Yunon-fors urushlari yunonlarning to‘liq g‘alabasi bilan yakunlandi.**
- **Uning qo‘shinlari suvoriylar va piyodalardan tashkil topgandi. Piyoda qo‘shinlar 16 qatordan iborat falangada saflanardi.**
- **Falanga** - Filipp II va Iskandar Zulqarnayn tomonidan takomillashtirilgan, uzun nayzalar (sarissa) bilan qurollangan, jipslashgan holda harakatlanuvchi og‘ir piyoda qo‘shin tuzilmasi. U dushman markazini yorib o‘tish va zarbalarga dosh berish uchun mo‘ljallangan, antika davrining eng kuchli harbiy taktikasi hisoblangan.

- Ikki tomonning asosiy kuchlari Xeroniya shahri yaqinidagi Beotiyada to‘qnashadi. Shiddatli jang uzoq davom etadi. Harbiy hiyla qo‘llagan makedonlar ustunlikni qo‘lga oladi. **Yunoniston Makedoniyaga qaram bo‘lib qoldi.**

**Mana shunday etib sinf o‘quvchilari navbat bilan o‘z fikrlarini bildiradi. Bildirilgan har bir yangi fikr oldingi fikrga bog‘lanadi. Natijada mantiqiy “zanjir” hosil bo‘ladi.** Bu usul tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi.

Ushbu metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirish, mantiqiy bog‘lanishlarni shakllantirish, muammoni chuqur tahlil qila olishi va jamoaviy muhokamani faollashtirishdan iborat. Mazkur metodni dars jarayonida qo‘llashda quyidagi afzallik bilan birga kamchiliklar ham mavjud.

№	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	O‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi	Ba’zan mavzudan chetga chiqish mumkin
2	Nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi	Vaqtini ko‘proq talab qiladi
3	Mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi	Passiv ishtirokchilar kam qatnashishi mumkin
4	Darsni qiziqarli qiladi	

Xulosa qilib aytganda “Fikrlar zanjiri” metodini tarix darslarida qo‘llaganimizda o‘quvchilarda tarixiy voqealar mantiqiy va isbotli jihatdan ketme-ketlikda yoritiladi. O‘rganilayotgan mavzudagi tarixiy davrga, shaxsarga nisbatan tahlili yondasha oladi. Bir so‘z bilan aytganda o‘quvchilarning tarixiy bilimlari, tarixiy xotira va tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shermuxammedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Toshkent, 2014. “Fan va texnologiya”, 235-b.
2. Сафарова Р.Г., Жўраев Р.Ҳ. Педагогика энциклопедия (2 жилд) // – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2015.76-b.
3. Sagdullayev A., Kostetskiy V. Qadimgi dunyo tarixi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2022. 99-b.
4. Авлаев О.У., Жўраева С.Н., Мирзаева С.Р. Таълим методлари. Тошкент. 2017, “Наврўз” наршриёти. 208-б.

5. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳолиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Тошкент, 2013. 136-б.